

## JADIDCHILIK HARAKATI

*Axmedov Shohrux*

*Yahyo G'ulomov nomidagi Samarqand Arexologiya  
institutini Stajyor-tadqiqotchisi.*

+99893-349-71-98

Jadidchilik harakati XIX asr oxiri-XX asr boshlarida Turkiston, Kavkaz, Qrim, Tataristonda paydo bo'lgan yirik ijtimoiy-siyosiy harakatdir va ushbu davlatlar hayotida muhim ro'l o'ynagan siyosiy harakatdir. Jadidchilik harakati yoki "Jadid" so'zi arabchadan olingan bo'lib yangi degan ma'noni bildiradi va XX asrdagi Turkistondagi yirik uyg'onish harakatidir. Jadidchilik harakati ildiziga e'tibor bersak bu harakat asoschisi qrim-tatar marifatparvari Ismoil G'aspiralidir. Ismoil G'aspirali XIX asr oxiri-XX asr boshlaridagi turkiy xalqlar uyg'onish harakatining tom ma'nodagi asoschilaridan biridir.

Jadidchilik harakati dastlab, XIX asrning 90-yillaridan O'rta Osiyoda tarqaldi. Jadidchilik avval madaniyat sohasidagi harakat sifatida faoliyat yuritgan. Bu oqim vakillari taraqqiyot uchun kurashish, turkiy tillarni rivojlantirish, shu tillardagi adabiyotni boyitish, dunyoviy ilmlarni o'rganish, fan yutuqlaridan foydalanish hamda ayollar va erkaklar tengligi uchun kurashishga chaqirishgan. Keyinchalik jadidlar panturkizm g'oyalarini targ'ib qilishgan. Sovet davrida yozilgan adabiyotlarda jadidchilikka "burjua-liberal, millatchilik harakati" deb ta'rif berilgan. Bu davrda asosan tanqid qilingan jadidchilik namoyandalari nomi SSR parchalanib ketganidan keyin qayta tiklandi. Jadidchilik harakati dastlab XIX asrning 80-yillarida Qrimda Ismoil G'aspirali rahbarligida qrim tatarlari o'rtasida vujudga kelgan.

Jadidchilik o'z tarixida ikki bosqichni o'tgan. Birinchisi- marifatchilik bosqichi va ikkinchisi-siyosiy bosqichdir. Jadidlarning davlatchilik masalasidagi qarashlari birinchi davrdanoq shakllana boshlagan va ikkinchi bosqichda aniq bir shaklga kelgan desa bo'ladi. Jadidlar o'tmishga nazar solib jamiyatdagi barcha salbiy narsalar milliy davlatchilikning yo'qolishi bilan bo'g'laganlar. Jadidchilik harakati namoyandalari ko'pincha o'zlarini taraqqiyparvarlar, keyinchalik jadidlar deb atashgan. O'sha davrning ilg'or taraqqiyparvar kuchlari, birinchi navbatda, ziyolilar mahalliy aholining umumjahon taraqqiyotidan orqada qolayotganligini his etib, jamiyatni isloh qilish zaruriyatini tushunib yetgandilar. Jadidchilik mohiyati e'tibori bilan avvalo siyosiy harakat edi. Uning shakllanish va mag'lubiyatga uchrash davrlari bo'lib, ularni shartli ravishda to'rtga bo'lish mumkin. Turkiston, Buxoro va Xiva hududida bu davrlar 1895-1905, 1906-1916, 1917-1920, 1921-1929-yillarni o'z ichiga oladi.

Birinchi davrda podsho Rossiyasining mustahkam o'rnatilishi kuzatildi. U o'z siyosiy agentlari (vakillari) yordamida mahalliy xon va amir vakolatlarini

cheklabgina qolmay,ularni qo'g'irchoqqa aylantirib,rus va g'arb sarmoyadorlarining ishlashi va yashashi uchun sharoit yaratadi,turli kompaniyalar,aksiyadorlik jamiyatlari manfaatini ko'zlaydi.Ayni chog'da mahalliy aholining talab va ehtiyojlari nazarga olinmay qo'yildi,diniy e'tiqodlar,urf-odatlar bilan hisoblashmaslik,ularni mensimaslik kuchaydi.Hayotiy,ilmiy saviyasi yuqori bo'lgan qozilar tajribasiz kishilar bilan almashtirildi,poraxo'rlik,ijtimoiy-siyosiy adolatsizlik avj oldi. Jadidchilik harakatining paydo bo'lib,rivojlanishida qrimlik Ismoilbek Gaspirinskiy (1851-1914) hissasi katta bo'ldi. U Qrimda XIX asrning 80-yillaridayoq, Rossiya bosib olgan musulmon xalqlari orasida birinchi bo'lib jadidchilikka asos soldi. Uning rus va turkiy tillarda chop etilgan "Tarjimon" (1883-1914) gazetasi, "Rossiya musulmonligi" (1881),"Ovro'pa madaniyatiga bir nazar muvozanati" (1185) va boshqa asarlari hamda jadid maktabi uchun darslik va qo'llanmalar yozdi. Bu inson tom manodagi jadidchilik harakatining asoschilaridan edi.

Ismoilbek Gaspiranskiy 1884-yilda "Tarjimon" gazetasi orqali musulmonlarga qarata shunday murojaat qiladi: "Suyukli do'stlarim , bizning uchun eng go'zal ish ilm va maorif ishidir. Eng muqaddas intilish ilmga, maorifga intilishdir. Chunki insonni inson etgan mehnat va bilimdir. Bilim madaniy turmush (svilazatsiya) ga yetishish vositasidir.Ismoil Gaspiranskiy 1884-yilda o'n ikkita bolani yangicha usul-"usuli jadid"-savtiya (tovush) usuli bilan o'qitib , qirq kunda savodini chiqaradi. U 1892-yilda Turkiston general-gubernatori N.O.Rozenbaxga maxsus maktub yo'llab, unda maktablarni isloh qilish, jadid maktablarini tashkil etish madrasalardan birini zamonaviy oliy ta'limga moslashtirishni taklif etadi. Ammo, bu takliflar amalga oshmaydi.Shundan so'ng u Toshkentga keladi va bu yerda ziyoli ulamolar bilan uchrashadi.Shundan so'ng Ismoil Gaspiranskiy Samarqandga boradi u yerda ziyolilar bilan uchrashadi. Undan so'ng Buxoraga boradi va Amirni jadid maktabini ochishga ko'ndiradi va maktabga "Muzaffariya" degan nomni berishadi. Jadidchilik g'oyasi Turkistonda XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab keng tarqaladi. XIX asrning 90-yillari – XX asrning boshlarida jadidchilik muntazam madaniy-ma'rifiy harakat sifatida paydo bo'ldi. Uning tashkiliy jaroyani shu bilan yakunlanadi. Abdulla Avloniy yozadi: "Turli gazeta va jurnallar o'qishga tutindim. 1904-yilda jadidlar to'dasiga kirdim. Mirobodda "usuli jadid" maktabini ochib o'qituvchilik qila boshladim".

Jadidchilik harakati va jadidlar tarixini, asosan ikki davrga bo'lish mumkin: 1) XIX asrning 90-yillaridan – 1917 – yil – fevraligacha; 2) 1917-yil fevralidan – 1929 – yilgacha. Birinchi davrda jadidchilik harakati uch bosqichga bo'linadi : 1) Jadidchilikning bo'lishi va muntazam uyushgan harakat shakliga ega bo'lishi ( XIX asrning 90-yillari – 1905 – yil); 2) Jadidchilik harakatining nisbatan tez va qarshiliksiz rivojlanishi ( 1905-1909-yillar); 3) Jadidchilikning chorizm tomonidan ozodlik,demokratik va inqilobiy harakatlarga qarshi kurashni kuchaytirgan davrdagi rivojlanishi ( 1909-1916-yillar). Ikkinchi davr ham voqealar rivojlanishiga qarab uch

bosqichga bo'linadi : 1) 1917- yil fevral – oktabr ; 2) 1917-yil noyabr – 1924-yil; 3) 1925-1929-yillar. Sovet davri tarixi fanida jadidchilik harakatiga “milliy burjua harakati”, jadidlar esa “milliy burjuaziya sinfining mafkurachisi” hatto, “xalq dushmani” deb soxtalashtirib ko'rsatib kelindi. Sovet davrida jadidchilik harakatiga shunga o'xshash bir qancha noto'g'ri va asossiz ayblovlar qo'yildi, ularga qo'yilgan asossiz ayblovlar XX asrning 50-yillarida va mustaqillik yillarida olib tashlandi.

Jadidchilik harakati shu vaqtgacha islom dunyosida sira ham ko'rinmagan ilg'or va tezkor o'qitish “Savtiya” (tovush) usuliga asoslangan jadidlar maktablari tashkil topa boshladilar. Bu maktablarda bolalar bir-ikki yilda to'la savod chiqarib, mukammal o'qish va yozishni o'zlashtiradi. Buning uchun esa qadim an'anaviy musulmon maktablarida besh-olti yil kerak bo'lar edi. Jadid maktablarida shariat ilmi bilan birga bugungi kundagi barcha zamonaviy fanlar o'qitilgan.

Jadid maktablari to'rt (boshlang'ich) va yetti yillik edi. Masalan, Munavvar Qorining yetti yillik maktabini bitirgan talaba diniy va dunyoviy ilmlarni, rus tilini yaxshi o'zlashtirgan holda kichik masjidlarda imom bo'lish, madrasa va hatto, xorijdagi dunyoviy oliy o'quv yurtlarida o'qish, savdo va boshqa korxonalarda kotib bo'lib ishlashi mumkin bo'ladi. Jadid maktablarida bolalar pulli va pulsiz o'qiganlar baholi qudrat ota onalar bir so'mdan bir yarim so'mgacha pul to'laganlar. 20-30 foizgacha kambag'al va nochorlarning bolalari tekin o'qitilgan, o'quv qurollari bilan ham tekin ta'minlangan. O'ziga to'q oilalar esa uch so'mdan va yana balki udan ham ko'p pul bergan. Jadid maktablari uchun darsliklar dastlab Qozon va Orenburgda tayyorlanib olib kelingan so'ngra esa ular darslikni o'zlari ishlab chiqqan. Jadid maktablarining paydo bo'lishi va rivojlanishi mintaqadagi eski usul maktablariga ota onalar farzandlarini yubormay qo'yadi bu esa, yangi va eski maktablar o'rtasida nizolarni avj oldirdi. 1908-yildan boshlab jadid maktablari arziyas sabablar bilan yopish holatlari kuzatildi. Bu davrda butun Turkiston mintaqasida jadid maktablari keng yoyildi. Jadid maktablari M.Behbudiyni yozishicha, 15 -20 -yil ichida jami Kavkaz mamlakatlari, Eron, Hind, Misr, Hijoz va boshqa joylarda jori bo'ldi.

Jadidchilikning asosiy maqsadlaridan biri mamlakatda zamonaviy (yevropacha) oliy ta'limni yo'lga qo'yish bo'ldi. Buning uchun oldindan katta tayorgarlik ishlari olib borildi. Oliy ta'lim universitet ochish g'oyasi ilk bor 1892-yildan boshlandi. Shu yili Ismoilbek G'aspirali genaral-gubernatorga madrasalardan birini oliygohga aylantirish taklifini berdi. Ammo bu taklif amalga oshmadi. Ismoil G'aspirali 1906-yilda o'zining “Tarjimon” gazetasida to'g'ridan to'g'ri Xiva va Buxora xonlarini oliy o'quv yurtlari ochishga chaqiradi. Murojaatda shunday deyilgan “Fuqaroi islom sizlardan mol istamas, osh istamas. Din- “Qurondan, jon- Xudodan. Siz davlatlik xonlardan aholiga ehson etiladigan narsa – nashri maorifga, taraqqiyot va kamolatga omil bo'luvchi oliy darajalik maorif maktablaridir. Ko'hna madrasalari ko'p Buxoroi sharifda va Xivada endi biror dorilfununi Islomiya tasis etmoq lozim. Bu dorilfununlarga bir daraja ilm

olgan talaba qabul qilinib,tarix,jug'rofiya,kimyoye,handasa,ilmi huquq,usuli idorayi davlat,ilmi iqtisod va boshqa lozim fanlar,turkiy,forsiy,rusiy,fransaviy tillar o'rgatilsa... Ushbu dorilfununlarda muallim va mudarrislik qila oladigan ahli kamol bor".

Jadidlar oliy ta'limni tashkil etishda Toshkent shahar dumasidan ham foydalandilar.Deputat Munavvarqori Abdurashidxonovning taklifi bilan U.Asadullaxo'jayev va Sodiq Abdusattarovlar Toshkent shahar dumasining 1917-yil 21-oktabrdagi majlisida universitet tashkil etish komissiyasiga kiritiladi va ularga universitet tashkil etishda musulmonlar manfaatini himoya qilish zarurligi uqtiriladi. Umuman olganda jadidlarning juda katta say-harakati bilan o'n besh-yigirma yil ichida butunlay yangi,ya'ni jadid xalq maorifi tizimi va uning o'ziga xos diniy-dunyoviylikdan iborat ta'lim-tarbiya usullari to'la shakllandi.

Jadidchilik harakati nomayondalarining asl maqsadi ularning ko'pchiligi xalqni millatni marifatli qilish edi va amalda bu maqsadiga erishdi ham lekin ularning ko'pchiligi Sovet hukumati davrida qatag'on qilindi va shirin jonlarini shu vatan uchun fido etishdi.

Mustaqillik yillarida jadidlar merosi tom ma'noda teran o'rganilmoqda va sakkiz nafar jadid haqida,ularning hayoti va ijodiga ba'g'ishlangan sakkiz jildli risolalar e'lon qilindi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Jadidchilik>.
- 2.R.X.Murtazayeva O'zbekiston tarixi "Yangi asr avlodi" Toshkent-2003.
- 3.<https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Jadidlar>.
4. D.A.Alimova O'zbekiston Davlatchiligi Tarixi Ocherklari. "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyodorlik kompaniyasi. Toshkent-2001.
5. A.S.Sagdullayev, Q. Rajabov, F. Hasanov. "O'zbekiston Tarixi Solnomasi" "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" –Davlat ilmiy nashriyoti 2007-y.